

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-4/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Qurbonova Sh.A. Kontsept kategoriyaning mohiyati va mazmuni xususida	133
Rahimova B.B. “Yurakniki bo‘lsin xotiram...”	136
Rahimova G., Fayziyeva Sh. Suyima G‘aniyevaning Alisher Navoiyni “Vaqfiya” asari haqidagi tadqiqoti	138
Rasulov Z.I., Ibragimova N.S. Rasmiy nutqda nutqiy aktlarning ifodalanishi	141
Safarova U.A., Trubina I.S., Ryabkova E.A. Status of contamination in modern french language	144
Saidova Z.Kh. Morphological analysis and structural classification of phraseological units	146
Salomova G.A. O‘zlashgan qisqartma so‘zlarning ingliz va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi	149
Saparova M.F. Semantic-structural study of nouns for the Thesaurus of the Uzbek language	151
Shokirova Sh.Sh. Turli tizimli tillarda "iltimos" nutq akt turlari tadqiqi	155
Suvanov H.N. Badiiy adabiyotda koloritning millatga xos jihatlari	158
Suyarova Sh.T. Qishloq xo‘jaligi soha terminlarini tarjima qilishning lingvomadaniy jihatlari	162
Tilovov O., Isoqulova G. O‘zbek va xitoy tilida frazeologik birliklarning o‘rni	164
To‘xtasinova Sh.A. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologiyasida “sevgi” konseptining kontrastiv tadqiqi	166
Tursunov M.M., Jalilov B.X. Ingliz va o‘zbek tillarida turli sohalarda neologizmlarning kirib kelishi tahlili	170
Ubaydullayeva M.O’. Variability of the semantic content of the concept "conceptual lacuna"	174
Ullieva S.Kh. Speech portrait of a hero from the point of view of linguistics	176
Xalilova G.A., Xalilova Z.N. Theoretical notions of publicistic style translation	179
Xamidova T.R. Chet tillarda mutaxassislikka oid matnlarning terminologik jihati	181
Xamrayeva Z.X. Murakkab sintaktik yaxlitlik lingvistik matn vositasi sifatida	183
Xo‘janiozova Y. “Ufqqlarning chin oshig‘i” asari xususida	186
Xodjayeva D.I., Azamova G.A. Analysis of several neologisms that entered the uzbek language	189
Xolmatova N.N. Isajon Sultonning “turmush” hikoyasida globallashuv muammolarining yoritilishi	191
Xudoyberdiyeva R.A., Ashirmatova M.J. Qishloq xo‘jaligiga oid terminlarning milliy va xalqaro ma‘lumotlar bazalarining xususiyatlari	194
Zoxidova G.T. The concept of linguistic identity in english and uzbek	196
Абдувалиев М.А. Концептларни тасвирлаш ва моделлаштиришнинг лингвокогнитив методикаси	200
Абдувахабова У.М. Актуализация прагматических особенностей текста в процессе перевода	202
Агзамова Д.Б. Хотира феноменининг ўзбек халқи оламининг илмий манзарасида концептуализация ҳодисаси	205
Адилова Д.К. Проблемы правильного перевода технических терминов	207
Азизова Н.Б. Развитие концепта "мать" в культурных традициях и в религиях	210
Азимова А. Медиа дискурс как объект лингвистики и межкультурной коммуникации	213
Алимов Т.Э. Немис, ўзбек ва рус тилларида кийимга оид лексика	216
Аширбаева Д. Мурожат бирликлари дискурсининг оператори сифатида	219
Бабаджанов Х., Палванова Ш. Названия лиц в тюркизме	222
Бозорова М.А. Реалии и трудности при их переводе	225
Вахидова Ф.М. Ўзбек юридик терминларининг лексик семантик хусусиятлари	227
Гибайдуллина В.Р. Роль латинского языка в пополнении словарного состава русского языка	230
Гибайдуллина Ф.Р. Ономастические ориентализмы в очерках А.С.Пушкина «Путешествие в Арзрум»	234
Икромхонова Ф. Марк Твен асарларида образлар тизими	238
Каримов Х.А. Функция эквивалентности и безэквивалентности в сопоставлении русских и узбекских фразеологизмов	240
Каримова У.Д. Мукаддас манбаларнинг инглизча таржималари	243
Кумакбаева Г.К. Этнолингвистиканинг ўзига хослигини таржима сифатида тан олиш	245
Мавлонова Н.А. Теоретические основы межъязыковой фразеологической общности	247
Мирсагатова П.А. Фразеологик маъно махсус семантик категория сифатида	249
Сабирова Н. Контекстуал синонимиянинг қўлланилиши	252
Сулайманова Н.Ж. Роль оценочных концептов в паремиологическом ландшафте мира	255
Тўраева М. Муҳаммад Юсуф ва Иқбол Мирзо ижодида афғон уруши воқелиги талқини	261
Хасанова К.Б. Особенности англоязычной прессы	264

2. Ғаниева С. “Хўблар ўргансалар, тонг йўк Навоий назмини... //Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1991.– 8 февраль, 24 б.
3. Ғаниева С. Навоийдин чу топқайлар навос. //Ёшлик. –1991.3-сон,54 б.
4. Ғаниев С. Навоий биографиясига доир бир хужжат. //Ўзбек тили ва адаб. –1981. – 3 сон, 9-13 б.
5. Ғаниева С. Навоийнинг армони //Ўзбек адабиёти ва санъати. –1998.–27 март, 4 б.
6. Shodiyev Fakhridin Teshaeovich. Alisher Navoi's interpretation of global ideas on human perfection. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.02536.2.
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=11&article=098>

UO'K 81-139

RASMIY NUTQDA NUTQIY AKTLARNING IFODALANISHI

Z.I.Rasulov, f.f.n.dots., Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro
N.S.Ibragimova, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada nutqiy akt, uning turlari va rasmiy nutqga oid matnlarda mazkur akt turlarning ifodalanish usullari haqida so'z boradi. Shuningdek, ushbu ishda rasmiy nutqga oid matnlarda pragmatik maqsadlarni aks ettirishining muhim jihatlari ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, nutqiy akt turlari, nutqiy vaziyat, nutq obyektini so'zlovchi, tinglovchi, lokutiv, illokutiv, perllokutiv.

Аннотация. В данной статье речь идет о речевом акте, его видах, методах выражения этих актов в текстах официально-делового стиля. А также, в этой работе уделено внимание на особенности выражение прагматической цели в вышеуказанных видах контекстов.

Ключевые слова: речевой акт, виды речевого акта, речевая ситуация, речевой объект, говорящий, слушатель, локутивный, иллокутивный, перлокутивный

Abstract. The article presents the views on a speech act, types of speech act, and the ways of expressing speech acts in the contexts of formal style. Furthermore, in this piece of scientific work, attention was focused on the significant features of reflecting pragmatical purpose.

Key words: speech act, types of speech act, speech situation, speech object, speaker, listener, locution, illocutive, perlocution

Kirish. Nutqiy akt nazariyasi, dastlab, lingvofalsafiy ta'limot sifatida shakllana boshlagan bo'lib, keyinchalik pragmatika yo'nalishining XX asr ikkinchi yarmidagi rivoji uning nazariya bo'lishi uchun zamin yaratdi.

Birinchilardan bo'lib V.Humboldt, SH.Balli, K.Byuller, E.Benvenist kabi olimlar o'z ta'limotlarida nutqiy akt tushunchasining mavjudligini ta'kidlashgan, ammo mantiqshunos J.Ostin va psixolog J.Serl o'z ishlarida nutqiy aktning to'liq bir nazariya sifatida shakllantirdilar. J.Ostin ta'kidlashicha, har bir gap talaffuz qilinganda, o'z ma'nosi ifodasidan tashqari, ma'lum bir harakat bajariladi, ya'ni biror bir voqea haqida darak-xabar beriladi, bu xabar tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi, biror narsa iltimos qilinadi, taqiqlanadi va buyruq, maslahat, ijozat beriladi, va'da yoki taklif qilinadi hamda takalluf, minnatdorchiilik izhor qilinadi. Demak, ma'lum bir gapning ma'lum muloqot muhitida ifodalanishi nutqiy aktdir, [1] deb ta'riflaydi.

O'zbek pragmatolingvistikasi asoschilaridan bo'lgan SH.Safarov ham yuqoridagi quyidagicha ta'rifni keltiradi: Tilning mavjud bo'lishi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda - gap) asl lug'aviy ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmuni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan amalga oshirilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir [2]. Mana shunday nutqiy harakatlar ifodasi nutqiy aktlardir.

“Har qanday nutqiy hodisa ma'lum niyat asosida namoyon bo'ladi. Odamlar nimadir haqidagi o'z muhokamalarini bayon qilish niyatida maslahat berish, va'da berish yoki taklif qilish, tinglovchini biror narsaga ishonitirish maqsadida so'zlaydilar” [3]. Yuqoridagi ta'riflardan shuni bilish mumkinki, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, ma'lum maqsad asosida tinglovchiga lisoniy vositalar, asosan gaplar orqali murojaatidir.

Nutqiy aktlarda umumiy holda quyidagi komponentlar ishtirok etadi: so'zlovchi, tinglovchi, nutq obyektini - faktik material hamda nutqiy vaziyat. Har qanday nutqda ushbu komponentlarning bo'lishi shart bo'lganligi uchun ham nutqiy aktlarning lug'aviy ma'nosini aniqroq tushuniladi [2]. Rasmiy nutqda ham nutqiy aktlarning ifodalanishida ushbu komponentlarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Chunki so'zlovchi va tinglovchi ma'lum nutq vaziyati yoki holatiga qarab, ma'lum bir nutq obyektini orqali, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'z fikrini, maqsadini aniq va to'liq bayon etadi va shu orqali xabar, buyruq, so'rash, iltimos, talab, ba'zi o'rinlarda va'da yoki kafolat kabi

ma'nolar orqali nutqiy aktlarni ifodalaydi. Rasmiy nutqda, yuqoridagi nutqiy aktlarning muhim komponentlaridan biri bo'lgan, nutqiy vaziyat nutqiy aktlarning bayon etilishi va anglanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan quyidagi rasmiy matnni izohlaydigan bo'lsak:

“Yoshlar orasida “Men sizning yoningizda turib, kamarbasta bo'laman!” deb ko'zi yonib turgan, bilimli, jasoratli yigit-qizlar borligiga ishonaman. Etakchilikning, o'z ortidan ergashtirishning eng to'g'ri yo'li shaxsiy o'rnak va namuna bo'lishdir”. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 27 dekabr kuni Muammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi.) Ushbu matndan bir nechta nutqiy aktni anglash mumkin: “buyruq” nutqiy akti, “talab” nutqiy akti, “taklif” nutqiy akti, shuningdek, yoshlardan shaxsiy o'rnak va namuna bo'lishligi haqidagi “iltimos” nutqiy akti.

Bunday nutqiy aktlarni nutq vaziyatiga ko'ra farqlash mumkin. Shuningdek, pragmatik jihatdan bunday nutqiy aktlarni pragmatik onimiya hodisasi sifatida ham tasnif qilish mumkin. “Pragmatik jihatdan omonim bo'lgan bir necha nutqiy aktlar bir vaqtning o'zida birinchi darajali ma'no imkoniyatiga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi” [2]. Bunda yuqoridagi buyruq ham, talab ham, iltimos hamda taklif ham bir qatorda anglanishi mumkin. Rasmiy nutqqa oid matnlarning og'zaki shaklida ham, yozma shaklida ham so'zlovchi fikrlarining ketma-ket o'rin olishi va mantiqiy bog'lanishi asosida biri ikkinchisi uchun xizmat qiladigan nutqiy aktlar yuzaga keladi. Bu holatda nutqiy aktlar birma-bir ifodalanadi va anglanadi: *“Sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash biz uchun eng ustuvor vazifadir. Ayniqsa, sud biron-bir mansabdor shaxsning qo'li etadigan idoraga aylanib qolishiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik shart. SHu sababli sud ishlariga aralashgani yoki sudga bosim o'tkazgani uchun javobgarlikni kuchaytirish lozim”.* (Prezident Sh.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag'ishlangan nutqidani.) Rasmiy nutqning og'zaki shakliga oid ushbu matnda “tasdiq”, “buyruq”, “talab” nutqiy aktlari ifodalangan.

“..nutqiy aktlarning matniy xoslanishi va anglanishini istisnosiz ravishda nutq vaziyati boshqaradi” [1]. Shuning uchun ham pragmatik nuqtai nazardan nutq vaziyati har qanday turdagi nutq uchun asosiy mezon vazifasini bajaradi. Rasmiy nutqqa oid ba'zi matnlarda so'zlovchi turlicha nutq vaziyatlarida aynan bir xil nutqiy aktlarni ifodalaydi: *“Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda – Orol fojeasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q. Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarini bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda”.* (Prezident SH.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi.)

“.....shuningdek, biz global tus olgan va millonlab insonlar hayoti, Markaziy Osiyo mamlakatlarining ekologik farovonligi va iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan Orol inqirozi oqibatlarini bartaraf etish uchun sa'y-harakatlarni birlashtirish tarafdorimiz. (Prezident SH.Mirziyoevning Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi, 2019 yil 14 iyun.

Yuqoridagi rasmiy matnlarda nutq vaziyati turlicha, ifodalangan nutqiy aktlar esa bir xil: “tashvish”, “taklif” va ma'lum ma'nodagi “talab” nutqiy aktlari.

Dj.Ostin nutqiy aktning mazmuniy tuzilishi so'zlash akti (lokutiv), so'zlovchi niyati (illokutiv) va nutqiy ta'sir etish (perlokutiv) aktidan iborat deb [4] ko'rsatadi. O'zbek tilshunosligi vakillari ham ushbu yondashuv tarafdorlari bo'lib, nutqiy aktlarni uch bosqichli faoliyat sifatida ko'rsatadilar: “Bu bosqichlarda uch xil turdagi harakat bajariladi. Ular - lokutiv, illokutiv va perlokutiv harakatlardir [5].

Tilshunos olim M.Hakimovning lokutiv akt xususidagi qarashlari ham shunday: “Lokutiv akt (ingl. lokution akt - talaffuz) - ma'lum tovush va so'zlarni o'sha til qonun qoidalari va grammatikasini hisobga olgan holda talaffuz qilish, shu asosda ifodani mazmun va referensiya bilan ta'minlash” [6].

Rasmiy nutqqa oid matnlardagi nutq harakatlarning deyarli barchasi lokutiv aktga xos xususiyatlar orqali hosil qilinadi, ya'ni rasmiy nutqning o'zi ham adabiy til me'yorlariga asoslanib, til qoidalari amal qilgan holda tuziladigan nutq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu nutqqa oid matnlarda lokutiv akt ifodalanishi mumkin. *“Ishonchimiz komil: xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak”.* (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi)

Lisoniy birliklarning ma'nosi tilning aslida qanday ishlatilishiga bog'liqligi tan olinadi. Tildan foydalanish nafaqat lingvistik bilimlarni (paradigmatik, sintagmatik va kontekstli bog'lanishlar), balki o'zaro ta'sir va maqsadga yo'naltirilgan aspektlar va bilimlarni ham nazarda tutadi [7].

“Illokutsiya” tushunchasi nutqiy akt nazariyasida eng keng tarqalgan tushunchadir. Nutqiy akt strukturasi markazida ham illokutiv harakat turadi. Hatto, illokutiv akt to'liqligicha nutqiy

harakatning muqobili sifatida qaralish hollari ham uchraydi va nutqiy aktlar tasnifi illokutiv maqsad ko'rsatkichlariga asoslanadi. Illokutiv akt nutqiy akt turlarining ichidagi o'rganilish doirasi keng nutqiy akt turi hisoblanadi. So'zlovchi ifodani talaffuz qilish jarayonida ma'lum maqsad yoki niyatini oshkora va yashirin holda ifoda etadi, mana shu holatda illokutiv akt namoyon bo'ladi.

Vendlerning fikricha, illokutiv akt so'zlovchi ko'zlagan ichki maqsadni tinglovchi tomonidan to'g'ri anglashi lozim bo'lgan mental aktdir [8]. Bunga ko'ra, so'zlovchi nazarda tutgan illokutiv akt bayonini tinglovchi tasavvuri bilan o'zaro muvofiq kelishi mental akt yoki mental holat sanaladi. Demak, so'zlovchi illokutiv aktda maqsadini to'laqonli bayon etish uchun, albatta, o'zi ta'kidlamochi bo'lgan fikrni har qanday usul bilan tinglovchiga yetkazishga harakat qiladi. Bunda so'zlovchining nazarda tutgan niyati bilan tinglovchining tasavvuri o'zaro mos holda to'qnashadi va mana shu erda mental akt yuzaga keladi:

Hurmatli Ismoiljon Tojiboevich Hojaliev!

“Algoritim” zavodi sizga o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlar olib borishingiz uchun barcha sharoitlarni yaratishga va o'zaro shartnoma asosida haq to'lashga kafolat beradi.

Zavod direktori (imzo) O.T.Samadov

Bosh hiosbchi (imzo) X.D.Olimov

Ushbu rasmiy nutqqa oid matnda so'zlovchining ifodalagan niyati tinglovchi talabi yoki tasavvuri, istagi bilan mos holda bayon etilgan bo'lib, illokutiv aktga xos “xabar”, “kafolat” va “iltimos” nutqiy aktlari ham ifoda etilgan. O'zbek pragmalingsvistikasi olimlaridan biri bo'lgan M.Hakimov [6] illokutiv akti kommunikativ niyat atamasi bilan nomlaydi: “Illokutiv akt matn yoki nutqda so'zlovchi ichki niyatining aks etishidir. Shuning uchun ham bu akti *kommunikativ niyat* atamasi bilan nomlash mumkin”. Shuningdek olim “Illokutiv akt nutqiy aktning barcha ko'rinishlari uchun umumiydir. Jumladan, “tasdiq”, “buyruq”, “talab”, “iltimos”, “va'da” aktlarining barchasida illokutiv maqsad ishtirok etadi deb ta'kidlaydi.

Demak, yuqoridagi rasmiy matnlarda ifodalangan nutqiy aktlar illokutiv maqsadning mahsuli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Dj.Serl ham illokutiv akti ma'lum niyat asosida ifodalanishini qayd etadi: “Ma'no tushunchasini matn yoki nutq tarkibidan xususiy ma'no ko'rinishlariga xos illokutiv akt sifatida ajratib olish asosida izohlaydi. So'zlovchi matni yoki nutqni talaffuz qilish bilan nimanidir aytilishni maqsad qiladi. Ana shu niyat illokutiv akt ekanligini to'g'ri ko'rsatadi” [9]. *“Endi har bir topshiriqni ijro etilgani qog'ozga qarab emas, erishilgan pirovard natijaga qarab baholanadi”*. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi)

Yurtboshimiz rasmiy nutqi orqali qog'ozbozlikni hamda natijalarni, topshiriqni faqat qog'oz orqali ko'rsatishni cheklashni niyat qiladi, bu kommunikativ niyatini “buyruq”, “tanqid”, “ogohlantirish” nutqiy aktlari bilan tinglovchiga yetkazmoqda.

Muayyan bir matnda nutq vaziyatining so'zlovchi tomonidan mihim deb hisolangan qismi bevosita ifodalanadi. Matndagi vaziyatning aksi uning mazmunini tashkil etadi va vaziyat haqidagi axborot mazkur mazmundan o'rin egallaydi [10].

Har qanday turdagi maqsadga erishish uchun so'zlovchining nutqi tinglovchiga o'z ta'sirini o'tkazmog'i darkor. Nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi perlokutiv akt nomini olgan Demak, perlokutsiya tinglovchi ongiga, his-tuyg'ulariga va xatti-harakatiga ta'sir o'tkazish harakatidir. Perlokutiv akt nutqiy faoliyat ta'siri natijasi sifatida izohlanib, lokutiv va illokutiv aktlardan farq qiladi. Ba'zi olimlar perlokutsiyaning lisoniy tahlil doirasiga kirmaydigan akt deb ham fikr bildirishadi, jumladan J.Lichning qayd etishicha: «Perlokutiv natija tahlili pragmatikaning vazifasiga kirmaydi, chunki pragmatik ta'sir kuchi maqsadi bilan bog'liq, natija bilan emas» (Leech 1983: 203)

Ammo bizningcha, nutqiy muloqotning to'liq bo'lishi uchun so'zlovchining biror axborotni yetkazishdagi kommunikativ niyati yoki maqsadi (illokutiv akt), so'zlovchi ifodani ma'lum til normalari va grammatik qoidalari asosida talaffuz qilib, mazmun va ma'no bilan ta'minlashi (lokutiv akt)ning o'zi yetarli emas qilmaydi, balki nutqiy muloqot jarayonida tinglovchini fikrini bilish, nutqiy ta'sir ko'rsatib, yangi nutqiy muloqot holatini hosil qilishdan ham iborat bo'ladi, shunda nutqiy akt tugal bo'lib, perlokutiv akti pragmalingsvistik tahlil doirasida o'rganish kerak bo'ladi. Shuning uchun tinglovchi fikriga nutqiy ta'sir etib, yangi nutq vaziyatini yuzaga keltirgan perlokutiv akti nutqiy akt turi sifatida qayd etishimiz o'rinli bo'ladi

Dj.Ostinning ta'kidlashicha, “so'zlash jarayonidagi aktlar lokutiv aktdir. U gapni talaffuz qilishda mazmun va referensiya bilan ta'minlaydi. Ikkinchidan, nimanidir talaffuz qilish bilan illokutiv aktlarni sodir etadi, ularda aniq konvensional kuchga ega bo'lgan buyruq, ogohlantirish kabi axborotlar mavjud bo'ladi.

Uchinchidan, gapirish, so'zlash va talaffuz vositasida nimagadir erishiladi: bu nutqiy ta'sir etish perlokutiv aktini sodir etish usuli hisoblanadi. Bunda so'zlash ta'sir etish vositasi bilan ishontirish, majbur qilish, hayron qoldirish, adashtirish imkoniga ega bo'linadi. "Harakat"ning mana shu uch tipi orqali mo'ljallangan va mo'ljallanmagan harakatlar asosidagi niyatlarga erishiladi"

Darhaqiqat, nutqiy aktlar anglanishida perlokutiv aktning o'rni alohida bo'lib, bunda nutqiy aktlar uchligi to'liq namoyon bo'ladi. Rus tilshunosligi vakillari ham perlokutiv aktni nutqiy akt doirasida o'rganib kelganlar: "Perlokutiv - atamasi ifodalagan tushuncha nutqiy akt masalalariga taalluqli bo'lib, u nutq adresatining faoliyatiga va fikrlariga, shuningdek, his-tuyg'ulariga ta'sir etish funksiyasini bajarish bilan xarakterlanadi.

Xulosa. Demak, so'zlovchi o'zining nutqiy harakatlari bilan tinglovchining his-tuyg'usi, fikri va harakatiga ta'sir etib, boshqa nutqiy harakatni hosil qiladi, bu holatda perlokutiv akt ifodalanadi. Yuqoridagi nutqiy akt haqidagi nazariy qarashlardan anglash mumkinki, nutqiy akt uchligidagi lokutiv akt so'zlash akti yoki talaffuz akti deb yuritiladi. Nutqiy aktlar ichidagi o'rganilish va anglanish doirasi keng bo'lgan illokutiv akt esa so'zlovchining niyati yoki maqsadi bilan bog'liq bo'lib matndagi kommunikativ niyat akti deb anglash mumkin, uchlikdagi perlokutiv akt esa fikrga, his-tuyg'uga ta'sir etish akti deb tushunish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2008. - 78-бет.
2. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. М., 1976, с.47.
3. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2001 – 102-бет.
4. Остин Дж.Л. Слово как действие. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. -М.: Прогресс, 1986.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2008. - 81-бет
6. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: "Академнашр", 2013. – 155-бет.
7. Когнитив семантиканинг tadqiqot obyekti xususida Z.I. Rasulov, M.Sh.Sattorova .НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2021 йил 9-сон
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2008. - 82-бет.
9. Серль. Дж.Р. Что такое речевой акт? НЗЛ. Вып. XVII. М., 1986, с.151-169.
10. Z.I. Rasulov Activation of information fragments in the text. - Development and innovations in science, 2022 - e-conferences.ru

UDC 81

STATUS OF CONTAMINATION IN MODERN FRENCH LANGUAGE

U.A.Safarova, PhD, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand

I.S.Trubina, associate professor, Privoljsk Research Medical University, Nijny Novgorod, Russia

E.A.Ryabkova, senior lecturer, Privoljsk Research Medical University, Nijny Novgorod, Russia

Annotatsiya. Maqolada muallif turli til darajalarida namoyon bo'lgan birikish konstruksiyalarni ko'rib chiqadi, morfologik birikma xususiyatlarining namoyon bo'lish darajasiga e'tibor beradi, nutq faoliyati jarayonida ularning pragmatik taqdirini ochib beradi. Muallif birikish tamoyilining morfologik darajada namoyon bo'lishini morfemalarning qo'shilib ketishi va bitta umumiy boshlang'ich morfema hosil bo'lishi bilan izohlaydi. Birlashtirilgan so'zlarning bunday shakllanishi sintaktik ta'limni, uning asosiy xususiyatlarini stereotiplashtirishni, shuningdek, diskursiv faoliyatning turli sohalarida foydalanishning yuqori chastotasini talab qiladi.

Kalit so'zlar: morfologik birikma, birikma shakllari, sinkretik shakllanishlar, transpozitsiya, derivatsiya, okkazializm.

Аннотация. В статье автор рассматривает контаминированные конструкции, проявляемые на различных языковых уровнях с обращением внимания на степень проявления контаминированных признаков, выявляя их прагматическую заданность в процессе речевой деятельности. Проявление принципа контаминации на морфологическом уровне автор объясняет сращением морфем и образованием одной общей исходной морфемы. Для такого образования сращенных слов требуется синтаксическое образование, стереотипизация ее основных признаков, а также высокая частотность употребления в различных сферах дискурсивной деятельности.

Ключевые слова: морфологическая контаминация, контаминированное образование, синкретичные образования, транспозиция, деривация, окказионализм.

Abstract. The author studies the complex of contaminated formations of various levels in the linguistic system taking into consideration principles, revealing their pragmatic peculiarities on the level of speech realization. The author notes that morphological base of contaminated words is